

SAMARQAND BADIY MAVZUSI AYOL-RASSOMLAR IJODIDA**Shaxlo Barnayeva***SamDAQU o'qituvchisi*

Annotatsiya. *Maqolada ijodiy kamoloti va faoliyati Samarqand shahri bilan uzviy bog'liq bo'lgan taniqli ayol rassomlar-Yelena Korovay, Nadejda Kashina hamda Zinaida Kovalevskayalarning badiiy trayektoriyalari tahliliy tadqiq etilgan. Asosiy e'tibor ushbu ijodkorlarning shahar muhiti, madaniy rang-baranglik hamda Samarqandning o'ziga xos vizual landshafti ta'sirida shakllangan badiiy mahorati va uslubiy xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan.*

Garchi, mazkur rassomlar rangtasvirning turli janrlarida, jumladan manzara va natyurmort yo'nalishlarida ijod qilgan bo'lsalar-da, maqoladagi qiyosiy tahlilning asosiy obyekti sifatida ularning badiiy merosida salmoqli o'rin egallagan portret janri tanlangan. Ushbu janrning tanlanishi, aynan portretida mualliflarning kuzatuvlari, mahalliy mavzularga murojaati hamda individual ifoda tili izlanishlari eng to'laqonli aks etganligi bilan izohlanadi.

Maqolada rassomlarning mintaqaga kelish shart-sharoitlari qisqacha yoritilgan hamda ularning realistik uslubda yaratilgan kompozitsiyalari tahlil qilingan. Tadqiqot mahalliy muzey fondlari materiallariga asoslangan bo'lib, bu Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi, O'zbekiston Davlat san'at muzeyi (Toshkent) hamda I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat san'at muzeyi (Nukus)da saqlanayotgan ma'lumbir asarlarni batafsil o'rganish imkonini berdi.

Kalit so'zlar: *Samarqand, O'zbekiston rangtasviri, realizm, portret janri, Nadejda Kashina, Yelena Korovay, Zinaida Kovalevskaya, Izofabrika, ARIZO, madaniyatlararo muloqot, vizual antropologiya, ranglar palitrasi.*

O'tgan asrlarda yashab ijod qilgan taniqli rassomlarning taqdiri betakror mintaqamiz tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, XX asrning boshlarida Rossiyaning turli hududlaridan turli uslubiy yo'nalishlarga mansub ko'plab rassomlar qadimiy va mehmondo'st Samarqandga tashrif buyurganlar. Ularning ayrimlari yangi badiiy shakllar izlab kelgan bo'lsa, boshqalari "Sharq nafasidan" bahramand bo'lishga intilganlar. Ular orasida Kuzma Petrov-

Vodkin, Aleksey Isupov, Viktor Ufimsev, Nikolay Mamontov, Aleksandr Nikolayev (Usto Mo‘min), Ogannes Tatevosyan va Porfiri Falbov kabi mashhur ismlar bor. Ularning bu yerda bo‘lish muddati turlicha kechgan: ba’zilari atigi bir necha oy yashagan bo‘lsa, boshqalari butun umrga shu yerda qolganlar.

1930-yillarda Samarqandga Yelena Korovay, Kliment Redko, Nadejda Kashina, Pavel Benkov, Zinaida Kovalevskaya va boshqa ko‘plab rassomlar tashrif buyurishdi. Ularning aksariyati bu yerda uzoq muddat yashab, ayrimlari esa umrining oxirigacha qolib, ushbu shaharni o‘zlarining ikkinchi vataniga aylantirdilar. Vaqt o‘tishi bilan Osiyoning ushbu olis madaniyat markazida ahil va ijodiy faol badiiy muhit shakllandi. Bu muhit kelajak avlodlar hamda san’at ixlosmandlari uchun tasviriy san’at asarlari ko‘rinishidagi boy merosni qoldirdi.

Mazkur muammoning dolzarbligiga qaramay, belgilangan mavzu hamon yetarlicha o‘rganilmaganligicha qolmoqda. Shu munosabat bilan, tarjimai hollari va badiiy merosi yanada chuqur hamda har tomonlama ilmiy tahlilni talab etuvchi ushbu rassomlarning hayoti va ijodini tadqiq qilish asosli deb hisoblanadi.

1929-yilda Ogannes Tatevosyan rahbarligida Samarqandda ARIZO (Rassomlar uyushmasi) ustaxonasi, 1930-yilda esa Izofabrika yoki “Fazo san’atining eksperimental ishlab chiqarish ustaxonalari” tashkil etildi. Bu yerda rassomlar yangicha turmush tarzi uchun ashyolar loyihalash- kundalik milliy liboslar eskizlarini yaratishdan tortib, mahalliy targ‘ibot klublari, maktab va bog‘chalar hisoblangan “qizil choyxonalar” interyerini badiiy bezatishgacha bo‘lgan vazifalar bilan shug‘ullanishgan. Bu N. Kashina, Ye. Korovay va Z. Kovalevskayalar uchun Sharq shunchaki ish joyi emas, balki moddiy madaniyatiga chuqur kirib borish imkonini bergan betakror ijodiy muhit edi.

Aynan shu nuqtai nazardan, ularning portret janridagi ijodi alohida tadqiqot qiymatiga ega bo‘ladi. Boshqa ko‘plab ustalardan farqli o‘laroq, Kashina, Korovay va Kovalevskayalar o‘zlarining amaliy ishlab chiqarish tajribalarini — matolar fakturasi va milliy naqshlar borasidagi chuqur bilimlarini-ta’sirchan psixologik rangtasvirga aylantira oldilar. Ularning portretlari o‘ziga xosligi shundaki, ularda nafaqat modelning aniq qiyofasi, balki Samarqandning quyosh nurlariga g‘arq bo‘lgan muhiti ham muhrlangan. Jazirama quyosh ta’sirida rassomlarning akademik ranglar palitrasi o‘zgarishga uchraydi, soyalar rangdor ko‘rinish oladi, kolorit esa o‘zgacha to‘yinganlik va vibratsiyaga ega bo‘ladi. Bu nafaqat inson tashqi qiyofasini,

balki mintaqaning haqiqiy ruhini ham ifodalash imkonini beradi. Har uchala rassom uchun Samarqand shunchaki mavzu emas, balki portret janrini boshqatdan anglash va ochib berishga xizmat qilgan o'ziga xos nur va hissiyot filtriga aylandi.

O'zbekiston SSR xalq rassomi, rangtasvirchi va grafik-rassom Nadejda Vasilyevna Kashinaning (1896-1977) ijodiy biografiyasi XX asr boshidagi Yevropa badiiy an'analari doirasida shakllandi. U Perm badiiy bilim yurtini tamomlagach, professional ta'limni davom ettirib, 1921-1927-yillarda Moskvadagi VXUTEMASda (keyinchalik VXUTEIN) Sergey Gerasimov, Aleksandr Kuprin va Robert Falk rahbarligida tahsil oldi.

1928-yilda N. Kashina badiiy bo'limning xizmat safari bilan ilk bor O'zbekistonga keldi. 1930-yilda esa u yana Markaziy Osiyoga yuborildi va shundan so'ng o'z ijodiy taqdirini uzil-kesil ushbu mintaqaga bilan bog'laydi. Samarqandning me'moriy obidalari, milliy liboslarning dekorativ boyligi va naqshinkorlik an'alaridan olgan taassurotlari uning badiiy dunyoqarashi shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Rassom O'zbekistonning vizual madaniyatini faol o'rganib, o'z asarlarida nafaqat timsollarning tashqi dekorativligini, balki insonlarning ichki dunyosi hamda tabiiy landshaftning o'ziga xosligini ham aks ettirishga intildi.

Samarqanddagi faoliyatining dastlabki yillarida N. Kashina individual badiiy til izlanishida edi. Uning ushbu davrdagi ilk asarlarida Robert Falkning ijodiy metodiga xos bo'lgan avangard tendensiyalar ta'siri sezilib turadi. Shu bilan birga, rassom Samarqandning eski mahalla hayoti va an'anaviy marosimlariga qiziqish bildirgan, bu esa keyinchalik uning mavzu va obrazlar borasidagi qarorlari uchun muhim asos bo'lib xizmat qilgan. Aynan shu qadimiy zaminda uning o'ziga xos, yuksak va chinakam koloristlik iqtidori to'laqonli namoyon bo'ldi va bu unga keng jamoatchilik e'tirofini keltirdi.

Tez orada, 1932-yilda Nadejda Kashinaning birinchi shaxsiy ko'rgazmasi tashkil etildi, biroq u keskin tanqidga uchraydi. Ushbu voqeadan so'ng rassom o'zining tasvirlash uslubini o'zgartirdi. Shunga qaramay, uning ijodida o'z davrining dolzarb mavzulariga bag'ishlangan butun bir asarlar galereyasi saqlanib qolgan. Rassomning Samarqandda yashagan davrida "Samarqand bozori" (1929), "Qishloqqa yo'l", "Bozordan qaytish", "Xat" va boshqa ko'plab kartinalari yaratildi.

Ko'plab mavzuli va janrli asarlar orasida O'zbekiston Davlat san'at muzeyida saqlanayotgan, matoga moybo'yoq bilan ishlangan "Doyira chalayotgan qiz"

kartinasi alohida o'rin tutadi. Mazkur asar yosh o'zbek qizining psixologik portreti bo'lib, N. Kashinaning ushbu janrdagi yuksak mahoratini namoyon etadi.

Asar 1945-yilda Toshkentda yaratilgan bo'lib, unda impressionizm va realizm unsurlari o'zaro uyg'unlashgan. Yorug'lik hamda nozik rang jilolarini (nyuanslarini) yetkazib berishda impressionistik yondashuvning ustuvorligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Garchi asar Samarqanddan tashqarida chizilgan bo'lsa-da, unda Samarqand badiiy muhiti ta'siri, ayniqsa, iliq ranglar palitrasining talqini va ushbu shaharda ijod qilgan rassomlarga xos bo'lgan barqaror motiv- "Samarqand quyoshi" timsoli bilan bog'liq o'ziga xos koloristik yechimda ekanligi yaqqol seziladi. Portretning koloristik to'yinganligi va emotsional ta'sirchanligi modelning ruhiy holatini ochib berishga xizmat qiladi hamda N. Kashinaning individual badiiy dastxatini alohida ochib beradi.

Yelena Korovay (1901-1974)-ijodiy kamoloti XX asrning birinchi choragidagi jadal badiiy izlanishlar davriga to'g'ri kelgan rassomdir. U 1914-1917-yillarda Petrograddagi Imperator badiiy akademiyasi qoshidagi Rassomlik maktabida Bilibin rahbarligida tahsil oldi. Ushbu bosqich uning professional mahorati, badiiy didi va san'atning dekorativ tamoyillariga bo'lgan barqaror qiziqishi shakllanishida muhim rol o'ynadi.

1917-yilda Yelena Korovay ota-onasi bilan Barnaulga ko'chib o'tadi va u yerda san'atda yangi ifoda shakllarini izlashga intilgan sibirlik rassomlar davrasi -Mixail Kurzin, Viktor Gulyayev va Nikolay Mamontovlar bilan yaqinlashadi. 1918-yildan boshlab u ko'rgazmalar faoliyatida faol ishtirok eta boshlaydi, Oltoy badiiy jamiyatiga a'zo bo'ladi va rassom Mixail Kurzinga turmushga chiqadi. Shu davrda Korovay pedagogik faoliyat bilan ham shug'ullanib, Oltoy guberniyasi badiiy-texnik ustaxonalarida dars beradi. Uning ko'psonli shogirdlari orasida Vladimir Kaydalov ham bor edi.

1920–1923-yillarda rassom Moskvada istiqomat qiladi va Oliy badiiy-texnika ustaxonalarida (VXUTEMAS) tahsilni davom ettirib, davrining yetakchi badiiy yo'nalishlari bilan yaqindan tanishadi. Ushbu bosqich uning professional tayyorgarligini chuqurlashtirishga va badiiy dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qildi.

1920-yillarning o'rtalarida Qrim va Kavkaz bo'ylab amalga oshirilgan qator uzoq muddatli safarlardan so'ng, Korovay yana Toshkentga tashrif buyuradi va 1927-

yilda Samarqandga ko'chib o'tadi. Rassom uchun bu shahar Ikkinchi jahon urushi yakunlangunga qadar, ya'ni 1946-yilgacha uning asosiy yashash va ijodiy faoliyat manzili bo'lib qoladi. Aynan Samarqand davri uning badiiy biografiyasida eng sermahsul va ahamiyatli davr bo'lib xizmat qildi.

Samarqandda rassom faol va ko'p qirrali ijodiy hayot kechirdi: rangtasvir asarlari yaratdi, she'rlar yozdi, bolalar kitoblariga suratlar chizdi, badiiy fabrikada (Izofabrika) hamda o'z shaxsiy ustaxonasida jadal mehnat qildi. Zamondoshlari Yelena Korovayni quvnoq va samimiy inson sifatida ta'riflashgan, ushbu xislatlar uning asarlaridagi obrazlar tizimi va emotsional tuzilmada o'z aksini topgan.

Rassomning Samarqand davrida yaratilgan eng mashhur asarlari qatoriga "Pushti rangdagi ayollar", "Samarqand. Eski shahardagi ko'cha" (1928), "Lanskaya portreti" (1942), "Xalq ustasi Boqo Rizayev", "Juman Bulbul portreti", "Samarqand" va boshqa qator asarlar kiradi. Ushbu namunalar rassomning mahalliy aholi timsollariga, shahar muhiti va Samarqandning madaniy makoniga bo'lgan barqaror qiziqishini namoyon etadi. Bu esa mazkur shahar ta'sirini uning individual badiiy tili shakllanishidagi asosiy omillardan biri sifatida qarash imkonini beradi.

"Pushti rangdagi ayollar", "Samarqand. Eski shahardagi ko'cha" va "Lanskaya portreti" kabi salmoqli asarlar aynan uning Samarqandda bo'lgan yillarida yaratilgan bo'lib, bu bosqichni rassomning ijodiy kamolot davri deb belgilashga asos bo'ladi.

1946-yilda Yelena Korovay O'zbekistonni tark etdi va Vladimir Favorskiyning taklifiga binoan Moskvaga ko'chib o'tdi. U yerda Favorskiy rassomga maishiy hamda tashkiliy masalalarni hal qilishda ko'maklashdi. Biroq hayotining ushbu bosqichida rassomning ijodiy salohiyati sezilarli darajada pasayadi. Moskvada u bolalar o'yinchoqlari va plastmassa buyumlari ishlab chiqarish fabrikasiga ishga joylashadi, bu esa amalda uning dastgohli rangtasvir sohasidagi jadal faoliyati yakunlanganini anglatardi.

Zinaida Mixaylovna Kovalevskayaning (1902-1979) yosh rassomlarga nisbatan ko'rsatgan mehribonligi va samimiyati bugungi kunda ham Samarqand badiiy jamoatchiligi xotirasida saqlanib qolgan. "U tabiatan juda ko'ngli ochiq inson edi. Ysh rassomlarga hamisha qo'lidan kelganicha-bo'yoqlar, maslahatlar bilan yordam berardi",- deya xotirlaydi uning zamondoshi, hozirda O'zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi Asliddin Isayev. Rangtasvirchi, O'zbekiston xalq rassomi Zinaida Kovalevskaya 1930-yildan boshlab, ustozi va oilaviy do'sti Pavel Petrovich

Benkovning maslahati bilan Samarqandga ko‘chib keldi va umrining oxirigacha shu yerda qoldi.

Izofabrikadagi faol faoliyati bilan bir qatorda, 1932-1949-yillarda Kovalevskaya Samarqand badiiy bilim yurtida dars berdi. O‘zining ijodiy faoliyati davomida u juda ko‘p sonli mavzuli asarlar, jumladan, portretlar, natyurmortlar, me‘moriy manzaralar hamda Urgut tog‘ etaklari tasvirlangan manzaralarni yaratdi. Ushbu davrning salmoqli asarlari sirasiga “Lojada” (1936), “Velopoyga g‘olibi” (1939), “P. P. Benkov portreti” (1945), “Xalq amaliy san’ati ustalari” (1947), “O‘zbek hovlisi” (1947), “O‘zbekiston SSR Oliy Sovetiga ilk saylovlar” (1951), “Ariq bo‘yida” (1957), “Rassom ayol S. F. Rakova portreti” (1961), “Dunyo ayollari tinchlik uchun kurashda” (1971–1972) kabi ishlar kiradi.

Rassomning eng sara asarlari –“Do‘stlar”, “Mehmonlar” (1940), “Samarqand manzarasi”- O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi (Samarqand) to‘plamida saqlanadi. Ushbu asarlarida u “zarrin va pushti rangli Samarqand quyoshi”ning betakror jozibasini tarannum etadi.

E’tiborga molik asarlardan biri–“Gazeta o‘qiyotgan qiz” (1953) kartinasi bo‘lib, u model qiyofasi kundalik interyer muhitiga uyg‘un tarzda kiritilgan kamer (shaxsiy) yo‘nalishdagi rangtasvir portretidir. Kompozitsiya barqaror muvozanat tamoyili asosida qurilgan. Stol ortida o‘tirgan model markaziy o‘rinni egallasa-da, atrof-muhitdan ustun kelmaydi, balki u bilan plastik va psixologik birlikda namoyon bo‘ladi. Qahramon tayanib turgan stol nafaqat kompozitsion, balki mazmuniy vazifani ham bajaradi. U obrazning ichki va tashqi olami, tomoshabin va personaj o‘rtasidagi o‘ziga xos chegara vazifasini o‘taydi.

Rangtasvir yechimi shakllarning yumshoq ishlanishi (modellirovka) va keskin kontrastlarning yo‘qligi bilan ajralib turadi. Yorug‘lik muayyan manbasiz, tarqoq holda taqsimlangan bo‘lib, bu asarda vazmin va samimiy (intim) muhitni yuzaga keltirgan. Yoritish alohida detallarni bo‘rttirib ko‘rsatmaydi, balki qiyofani go‘yo “qamrab olgan” holda, konturlarni yumshatadi va obrazning ichki diqqat-e’tiborini kuchaytiradi. Ranglar gammasi vazmin pastel tuslar uyg‘unligiga qurilgan bo‘lib, unda yumshoq pushti-sarg‘ish va yashil tuslar ustuvorlik qiladi; bular asarda osoyishta va mulohazakor kayfiyatni shakllantiradi.

Tipologik jihatdan asar XIX asr oxiri rus rangtasviriga xos bo'lgan kamer psixologik portret an'analari bilan bog'lanadi. V.A. Serovning "Shaftoli ushlagan qizaloq" asari bilan assotsiativ o'xshashliklar kompozitsion yechimda, interyerning hayotiy makon sifatida talqin qilinishida va portretga kundalik hayotning bir lahzasini muhrlash deb qaralishida namoyon bo'ladi. Biroq, Serov obrazidagi yorug'lik shodu xurramligi va lahzaning dinamikasidan farqli o'laroq, Kovalevskaya asarida boshqa bir emotsional sifat- ichki sukunat va davomiylik holati ustuvorlik qiladi.

Samarqand davrida yaratilgan portretlarda Yevropa akademik maktabi tamoyillari hamda mahalliy madaniy muhit elementlari (jumladan, tipaj, libos, fazoviy va ranglar yechimi) uyg'unlashgan alohida turdagi badiiy obraz shakllanganligi ko'rsatib berildi.

Mintaqaviy muzey fondlari materiallariga murojaat qilish kam o'rganilgan asarlarni ilmiy dunyoga kiritishga hamda mazkur rassomlar ijodidagi portret janrini Samarqand madaniy muhiti ta'sirini hisobga olgan holda ilk bor maqsadli qiyosiy tahlil qilishga imkon berganligi asoslandi. Bu esa tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

1929-yilda Ogannes Tatevosyan rahbarligida Samarqandda ARIZO rassomlar uyushmasi, 1930-yilda esa afsonaviy Izofabrika (Fazo san'atining eksperimental ishlab chiqarish ustaxonalari) tashkil etildi. Ushbu maskan yangi estetik tartib shakllanadigan o'ziga xos "laboratoriya"ga aylandi. Rassomlar kundalik milliy liboslar eskizlarini loyihalashtirdilar, keramika buyumlari uchun xomaki chizmalar yaratdilar va "qizil choyxonalar" interyerini badiiy bezatdilar. Nadejda Kashina, Yelena Korovay va Zinaida Kovalevskayalar ushbu jadal ijodiy muhitga faol kirishdilar.

Biroq, aynan ularning portret janridagi faoliyatida Samarqandning "moddiy olami" bilan o'zaro aloqa noyob badiiy natijaga olib keldi. Ularning portretlari etnografik aniqlik va yuksak tasviriy psixologizm tutashgan nuqtaga aylandi. Izofabrikada sharqona matolar fakturasi va naqshlar bilan doimiy ishlash ushbu rassomlarga o'z asarlarida timsollarning g'oyatda hayotiy va moddiy (sezilarli) ko'rinishiga erishish imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев Н. Ўзбекистон миллий портрет санъати: (альбом). – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – 44-bet.
2. Ахмедова Н. Живопись Центральной Азии XX века: традиции, самобытность, диалог. – Ташкент: SDC, 2004. – 224 s.
3. Барнаева Ш. Творческое достояние Оганеса Татевосяна // San'at. – Ташкент, 2021. – № 1. – С. 12-15.
4. Барнаева Ш. Творческое достояние художницы Елены Людвиговны Коровай // Сборник материалов IV Межрегиональной научно-практической конференции «Аз.Арт.Сибирь-2021». – С. 146-148.
5. Жосан В. Рядом с художниками: Записки Вера Жосан. – Ташкент: Изд-во журнала “San'at”, 2009. – С. 23.
6. Такташ Р.Х. Надежда Кашина 1896-1977: жизнь и творчество. – Ташкент: Изд. лит. искусства, 1982. – С. 136.
7. Туркестанский авангард. Каталог выставки. Государственный музей Востока. – Москва, 2009. – С. 222.
8. Шафранская Э.Ф. САМАРКАНД — МЕККА ДЛЯ ХУДОЖНИКОВ 1920–1940-Х ГОДОВ // Genius loci в литературе, искусстве, культуре. – СПб.: Свое издательство, 2018. – С. 200–212.
9. Ядгарова Н. Живопись вдохновленная солнцем // Звезда востока. – Ташкент, 2019. – № 2. – С. 129-132.
10. Asliddin Isayev bilan o'tkazilgan intervyu. 2023-yil, may.